

"Eng faol innovator ayol" ko'rik-tanlovi g'oliblari aniqlandi

// 28.08.2025

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/eng-faol-innovator-ayol-ko-rik-tanlovi-g-oliblari-aniqlandi>



Tanlov "O'zkiyosanoat" AJ tarmoq korxonalarida faoliyat yuritayotgan, jamoat ishlarida faol, iqtidorli 50 yoshgacha bo'lgan mutaxassis xotin-qizlar o'rtasida o'tkazildi.

Ishchi guruh tomonidan barcha loyihalar chuqur tahlil qilinib, eng munosiblari aniqlandi. Jumladan:

- 1-o'rin - Abdurahmonova Yulduz - "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ
- 2-o'rin - Mirxaitova Nargiza - "Maxam-Chirchiq" AJ
- 2-o'rin - Qobilova Maftuna - "Navoiyazot" AJ
- 3-o'rin - Gaynullina Albina - "Ammofos-Maxam" AJ
- 3-o'rin - Norqulova Zulayho - "Navoiyazot" AJ

Taqdirlash marosimida "O'zkiyosanoat" AJ boshqaruvi raisining birinchi o'rinbosari Yevgeniy Korjikov ishtirok etdi va g'oliblarni ajoyib natija bilan qutladi.

Sovrindorlarga diplom va pul mukofotlari, tanlovda faol ishtirok etgan barcha xotin-qizlarga boshqaruvi raisi nomidan faxriy yorliqlar taqdim etildi.

"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati